



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776(E) | SJIF 2023: 6.907

Hotamov Mumin
Axmadovich
Xaydarov Muhammad
Raxmonovich

Sh.Rashidov nomidagi SamDU Sport faoliyati fakulteti o'qituvchilari

BOLALAR SPORTINI RIVOJLANTIRISHNI MUAMMOLLARI VA ECHIMLARI

Annotatsiya. Maqolada sportchilar faoliyati davomida xilma-xil jismoniy va ruhiy to'siqlarga duch kelishi natijasida hamda ularning shu to'siqlarni har safar yengib o'tish jarayonlarida ahloqiy va irodaviy sifatlarining tarbiyalanib va mustahkamlanib borishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: salomatlik, iroda, axloq, ma'naviy, jismoniy, jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, sport, musobaqa.

Аннотация. В статье анализируется обучение и укрепление морально-волевых качеств спортсменов в результате столкновения с различными физическими и психическими препятствиями в процессе своей деятельности, а также в процессе преодоления этих препятствий каждый раз.

Ключевые слова: здоровье, воля, нравственность, духовное, физическое, физическая культура, физическое воспитание, спорт, соревнование.

Annotation. The article analyzes the training and strengthening of the moral and volitional qualities of athletes as a result of a collision with various physical and mental obstacles in the course of their activities, as well as in the process of overcoming these obstacles each time.

Key words: health, will, morality, spiritual, physical, physical culture, physical education, sport, competition.

Respublikamizda sport umumdavlat ishi hisoblanib, jismoniy madaniyat bilan birga aholining barcha qatlamlarini va yoshlar guruhini qamrab olgan. Mamlakatda 60 dan ziyod sport turi ommalashgan, ulardan 30 turi olimpiada o'yinlari dasturiga kiritilgan. Bugungi kunda yosh sportchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash,



ularning ijtimoiy faolligini oshirish, talaba-yoshlarni barkamol etib voyaga yetkazish, sportchilarini Olimpiya o'yinlari va boshqa xalqaro sport musobaqalariga tayyorlashning aniq maqsadga qaratilgan dasturlar, normativ-huquqiy baza yaratilgan bulib, Xukumatimiz tomonidan ushbu masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Bunga misol, Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida", "O'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida", "Ommaviy sport targ'ibotini yanada kuchaytirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari mamlakatimizda sportning yanada rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Sport sohasida turli unvonlar ta'sis etildi, shuningdek sport matbuoti shakllandi.

Ushbu Farmonga asosan Prezidentimiz tomonidan mamlakatda amalga oshirilayotgan kadrlar tayyorlash davlat dasturiga muvofiq hamda o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma'naviy salomatligini shakllantirishning, sog'lom turmush tarziga intilish va sportga mehr-muhabbatni singdirishning g'oyat muhim sharti sifatida bolalar ommaviy sportini rivojlantirishni ta'minlash vazifalari va istikbollari kursatib utilgan.

Jumladan, jamg'armaning asosiy vazifalari etib bolalar jismoniy tarbiya va sportini rivojlantirish borasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishga, bolalar sportini aniq maqsad yo'lida va barqaror avj oldirishga ko'maklashish, bolalardasportga mehr uyg'otish, o'sib kelayotgan yosh avlod ongida sport bilan shug'ullanish, sog'lom turmush tarziga amal qilish, ma'naviy va jismoniy kamolga intilish, ularni salbiy ta'sirdan himoya qilish hamda zararli odatlardan xalos etish, bolalarni barqaror fe'l-atvorli, Vataniga mehr-muhabbat va o'z mamlakati uchun g'urur-iftixor ruhida tarbiyalash borasidagi chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish vazifalari kursatib utilgan.

Bolalar va usmirlar sportini rivojlantirishda quyidagi asosiy mezonlarga tayanish hamda bosqichma-bosqich xolda amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Jismoniy tarbiya-sport jamoat birlashmalari bilan birgalikda O'zbekiston sportchilarini Olimpiya o'yinlari va boshqa xalqaro sport musobaqalariga tayyorlashning aniq maqsadga qaratilgan dasturlarini ishlab chiqish zarur.

Jismoniy tarbiya va sportning ilmiy-axborot ta'minoti tizimini tashkil etish, ya'ni yoshlarning turli toifalarining jismoniy kamolot darajasini aniqlash uchun sport normativlarini ishlab chiqish, jismoniy tarbiya va sport muammolari bo'yicha ilmiy, uslubiy va ommabop adabiyotlar yaratilishi va nashr etilishini tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Qishloq joylarda bolalar jismoniy tarbiya va sportining moddiy bazasini shakllantirish, aholi manzilgohlarida zamonaviy bolalar sport komplekslari tarmog'ini barpo etish, ularni zamonaviy sport uskunalari hamda anjomlari bilan jihozlash.

Zarur moliyaviy va moddiy mablag'larni jamlash, bolalarning jismoniy va ruhiy jihatdan uyg'un kamol topishini ta'minlashni nazarda tutgan holda tibbiyot muassasalari va tashkilotlari bilan o'zaro yaqin hamkorlikni ta'minlash.

Shu qatorda ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunining 14-moddasida Sog'liqni saqlash organlari va



muassasalarining jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishdagi ishtiroki va asosiy vazifalari aniq kursatib o'tilgan.

Jumladan aholi turli ijtimoiy guruhlarining jismoniy kamol topishi holatini va uning yuksalish sur'atlarini tahlil qilish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanayotgan shaxslarning tibbiy nazoratini olib borish, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi sog'liqni saqlash mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va ularni attestatsiyadan o'tkazishni vazifalari kursatib utilgan.

Shuningdek Konunning 23-moddasida un olti yoshga to'lmagan bolalarga jismoniy tarbiya-sport va sog'lomlashtirish xizmatlari bepul ko'rsatilishi ko'rsatib o'tilgan. Lekin xududlarda mahalliy davlat hokimiyati organlari tasarrufidagi jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport yo'nalishidagi ob'ektlarning kamligi sababi ushbu toifadagi yoshlarga jismoniy tarbiya-sport va sog'lomlashtirish xizmatlarini bepul tashkillashtirish muammolari kam emas. Ko'pgina davlatlarda korxonalar va tashkilotlar tomonidan jismoniy tarbiya-sportni rivojlantirish maqsadida moliyalashtirish yoki homiylik qilishda davlat tomonidan Fiskal siyosatga tegishli uzgartirishlar ya'ni Solikkka tortishda imtiyozlar kuzda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi 159-moddasiga asosan yuridik shaxslarning soliq solinadigan foydasi ekologiya, sog'lomlashtirish va hayriya jamg'armalariga, madaniyat, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, ta'lim muassasalariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga beriladigan badallar, homiylik va hayriya tariqasidagi mablag'lar summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning ikki foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda kamaytirilishi kursatib o'tilgan. Sog'liqni saqlash organlari va muassasalari aholi turli ijtimoiy guruhlarining jismoniy kamol topishi holatini va uning yuksalish sur'atlarini tahlil qilgan xolda tegishli davlat boshqaruvi organlariga homiy korxnalarga soliq imtiyozlarini ko'paytirish takliflarini kiritish orqali bolalar va o'smirlar sportini rivojlantirishga jalb qilinayotgan mablag'larni ko'paytirish choralari ko'rishlari maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 4 sentyabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi O'RQ-394-son qonuni;

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3031-son qaror.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 10 oktyabrdagi "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida" PF-3154-son. Farmoni.

4. Abdumalikov R., Yunusov T.T. va bopshalar «O'zbekistonda jismoniy tarbiya ta'limining rivojlanishi», metodik tavsiyanoma., T., UzDJTI nash., 1992.